

**BOLALAR LEKSIKOGRAFIYASINING LINGVODIDAKTIK
XUSUSIYATLARI: N. MAHMUDOVNING “SO‘Z SANDIQCHASI” ASARI
MISOLIDA**

Xolisa Abdumalikova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

1-bosqich magistranti

Xolisaabdumalikova9811@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola leksikografiya nazariyasi doirasida bolalar leksikografiyasining lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi bolalar lug‘atlarining umumiy lug‘atlardan farqli jihatlarini aniqlash hamda ularning til o‘rganish jarayonidagi didaktik ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanilib, bolalar lug‘atlarining strukturaviy va funksional xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari bolalar lug‘atlari boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirish va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim didaktik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar bolalar uchun mo‘ljallangan lug‘atlarni yaratishda lingvodidaktik tamoyillardan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, bolalar leksikografiyasi, lingvodidaktika, o‘quv lug‘atlari, boshlang‘ich ta‘lim, nutqiy kompetensiya.

Аннотация: В данной статье анализируются лингводидактические особенности детской лексикографии в рамках теории лексикографии. Цель исследования заключается в выявлении отличительных характеристик детских словарей по сравнению с общей лексикографией и научном обосновании их дидактической роли в процессе изучения языка. В ходе исследования применялись теоретический и сравнительный методы, с помощью которых были изучены структурные и функциональные особенности детских словарей. Результаты исследования показывают, что детские словари являются важным дидактическим средством в процессе изучения языка, особенно на начальном этапе обучения, способствуя развитию словарного запаса и формированию коммуникативной компетенции учащихся. Полученные результаты также подтверждают необходимость использования лингводидактических принципов при создании и применении детских словарей в образовательном процессе.

Ключевые слова: лексикография, детская лексикография, лингводидактика, учебный словарь, начальное образование.

Abstract: This article analyzes the linguodidactic features of children’s lexicography within the framework of lexicographic theory. The purpose of the study is to identify the distinctive characteristics of children’s dictionaries in comparison with general lexicography and to provide a scientific justification for their didactic role in the process of language

learning. The research employs theoretical and comparative methods to examine the structural and functional features of children's dictionaries. The results indicate that children's dictionaries serve as an important didactic tool in language learning, particularly at the primary education level, contributing to the development of vocabulary and communicative competence among learners. The findings also emphasize the importance of applying linguodidactic principles in the compilation and effective use of children's dictionaries in the educational process.

Keywords: *lexicography, children's lexicography, linguodidactics, educational dictionaries, primary education, vocabulary development.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda leksikografiya til tizimini ilmiy asosda tavsiflash va turli tipdagi lug'atlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Leksikografiya nafaqat til birliklarini qayd etish va izohlash, balki ularni kommunikativ hamda pedagogik maqsadlarda samarali qo'llash imkoniyatlarini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, ta'lim tizimida lug'atlar muhim didaktik vosita sifatida xizmat qilib, o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, nutqiy kompetensiyasini shakllantirish hamda tilni ongli ravishda o'zlashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda leksikografiya doirasida bolalar leksikografiyasini alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bolalar leksikografiyasi bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlarning tuzilishi, mazmuni, metodologiyasi hamda ularning didaktik imkoniyatlarini o'rganadigan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish bolalar nutqining ontogenezi, psixolingvistik xususiyatlari va tilni o'zlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda leksikografiya nazariyasi, o'quv lug'atlari hamda bolalar nutqining rivojlanishi masalalari ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, bolalar leksikografiyasining lingvodidaktik xususiyatlari, xususan bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlarda leksik birliklarni tanlash, ularni sodda va tushunarli tarzda izohlash hamda kontekstual misollardan foydalanish tamoyillari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida bolalar lug'atlarini lingvodidaktik nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur holat ushbu masalani alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi leksikografiya nazariyasi doirasida bolalar leksikografiyasining lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilish hamda N. Mahmudovning “So'z sandiqchasi” asari misolida bolalar lug'atlarida leksik birliklarni berish tamoyillarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida bolalar lug'atlarining strukturaviy va funksional xususiyatlari o'rganilib, ularning boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o'zni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda bolalar leksikografiyasining lingvodidaktik xususiyatlari leksikografiya nazariyasi doirasida tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda N. Mahmudovning “So‘z sandiqchasi” asari misolida bolalar lug‘atlarida leksik birliklarni tanlash, ularni sodda va tushunarli tarzda izohlash hamda kontekstual misollar orqali berish tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, tadqiqotda bolalar lug‘atlarining boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirish va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi lingvodidaktik imkoniyatlari aniqlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari bolalar leksikografiyasining nazariy asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda bolalar lug‘atlarining tuzilishi, leksik birliklarni tanlash tamoyillari hamda ularni izohlash usullarining lingvodidaktik jihatlari yoritilib, leksikografiya nazariyasini rivojlantirishga muayyan ilmiy hissa qo‘shadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari bolalar leksikografiyasini o‘rganishda metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalaridan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Mazkur tadqiqotda keltirilgan lingvodidaktik tavsiyalar bolalar uchun mo‘ljallangan lug‘atlarni tuzishda, o‘quv lug‘atlarini takomillashtirishda hamda o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar yaratishda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Leksikografiya nazariyasi va lug‘at tuzish masalalari tilshunoslikda keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, R. Hartmann va G. James o‘z tadqiqotlarida leksikografiyani til birliklarini tizimli ravishda tavsiflash hamda lug‘atlarni yaratish tamoyillarini o‘rganuvchi muhim lingvistik soha sifatida ta‘riflaydi. Ularning fikricha, lug‘atlar nafaqat til birliklarini izohlash, balki tilni o‘rganish jarayonida samarali didaktik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Shuningdek, H. Jackson va S. Landau kabi tadqiqotchilar leksikografiyaning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, lug‘at tuzish jarayonida leksik birliklarni tanlash, ularni izohlash usullari hamda lug‘atning foydalanuvchi auditoriyasini hisobga olish muhim omillardan biri ekanligini ta‘kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida lug‘atlarning tuzilishi va foydalanuvchilarga mosligi muhim metodik tamoyil sifatida qaraladi.

Bolalar leksikografiyasi masalasi esa tilshunoslik va lingvodidaktika kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Bu borada psixolingvistika va kognitiv rivojlanish nazariyalarining ham muhim o‘rni mavjud. Masalan, L. S. Vygotsky va J. Piaget bolalarning tilni o‘zlashtirish jarayonini ularning kognitiv rivojlanishi bilan bog‘lab izohlaydi. Ularning fikricha, bolalar yangi leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida obrazli tafakkur va kontekstual tushunishga tayanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham bolalar nutqi va o‘quv lug‘atlari masalalari ayrim tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, M. Asqarova kichik yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o‘rganib, lug‘at boyligini oshirish jarayonida o‘quv materiallarining muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi. G. Toirova esa o‘z tadqiqotlarida bolalar nutqining ontogenezi hamda

psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, bolalarning til birliklarini o‘zlashtirish jarayonida semantik va kognitiv omillar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bolalar uchun mo‘ljallangan lug‘atlarni lingvodidaktik nuqtai nazardan o‘rganish masalasi o‘zbek tilshunosligida hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, bolalar lug‘atlarida leksik birliklarni tanlash, ularni sodda va tushunarli tarzda izohlash hamda kontekstual misollar orqali berish tamoyillarini o‘rganish alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi asosida leksikografiya nazariyasi, bolalar leksikografiyasi hamda lingvodidaktika sohasiga oid ilmiy manbalar o‘rganildi va umumlashirildi. Bu jarayonda tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika yo‘nalishlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Shuningdek, tavsifiy metod yordamida bolalar lug‘atlarining tuzilishi, leksik birliklarni tanlash tamoyillari hamda so‘zlarga izoh berish usullari o‘rganildi. Ushbu metod orqali bolalar lug‘atlarining strukturaviy va funksional xususiyatlari aniqlab berildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida bolalar lug‘atlari va umumiy lug‘atlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning maqsadi, tuzilishi hamda didaktik vazifalari o‘zaro solishtirildi.

Bundan tashqari, lingvodidaktik tahlil metodi orqali bolalar lug‘atlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati baholandi. Tadqiqot obyekti sifatida N. Mahmudovning “So‘z sandiqchasi” asari tanlanib, undagi leksik birliklarning berilishi va izohlanish usullari lingvodidaktik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar leksikografiyasi umumiy leksikografiyaning alohida yo‘nalishi bo‘lib, u bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda lug‘atlar yaratishni nazarda tutadi. Bolalar lug‘atlarining lingvodidaktik xususiyatlari bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi.

1-jadval. Bolalar lug‘atlarining lingvodidaktik xususiyatlari

Lingvodidaktik xususiyat	Tavsifi	Ta’lim jarayonidagi ahamiyati
Leksik birliklarni tanlash	Lug‘at tarkibiga bolalar nutqida faol qo‘llaniladigan va ular uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar kiritiladi	O‘quvchilarning yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi
Sodda va tushunarli izohlar	So‘z ma’nolari murakkab ilmiy ta’riflar o‘rniga sodda va aniq tarzda izohlanadi	Bolalarning so‘z ma’nosini oson anglashini ta’minlaydi
Vizual vositalardan foydalanish	Lug‘atlarda rasmlar, tasvirlar va boshqa ko‘rgazmali vositalardan foydalaniladi	O‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda obrazli tafakkurni rivojlantiradi

Kontekstual misollar	Soʻzlarning gap tarkibida qoʻllanishi orqali ularning maʼnosi ochib beriladi	Oʻquvchilarning soʻzlarni nutqda toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasini shakllantiradi
----------------------	--	---

Birinchidan, Bolalar leksikografiyasining muhim lingvodidaktik xususiyatlaridan biri lugʻat tarkibiga kiritiladigan leksik birliklarni tanlash tamoyili ekanligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida bolalar lugʻatlarida asosan bolalar nutqida faol qoʻllaniladigan hamda ular uchun tushunarli boʻlgan soʻzlar tanlanishi kuzatildi. Bunday yondashuv soʻz maʼnosini obrazli kontekst orqali tushuntirish imkonini beradi.

Masalan, N. Mahmudov tomonidan keltirilgan quyidagi misolda “ayyor” soʻzining maʼnosi hayvon obrazlari orqali ochib beriladi: “Ayyor tulki oʻz tumshugʻidan qop-qonga ilinib, koʻp azob chekib oʻlibdi” (“Hiylagar bedana” ertagi) [18:215]. Mazkur misolda “ayyor” sifati tulkining hiylakorligi bilan bogʻlab tushuntiriladi. Natijada bola ushbu soʻzning semantik mazmunini obrazli tasavvur orqali anglaydi hamda uni nutq jarayonida hiyla ishlatadigan shaxslarni tavsiflashda qoʻllash imkoniyatiga ega boʻladi.

Ikkinchidan, bolalar lugʻatlarida soʻzlarga izoh berish usulining sodda va tushunarli boʻlishi muhim lingvodidaktik xususiyatlardan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, bolalar lugʻatlarida murakkab ilmiy taʼriflar oʻrniga sodda, aniq hamda bolalar tafakkuriga mos izohlar berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv oʻquvchilarning yangi soʻz maʼnosini tezroq anglashiga va uni nutq jarayonida faol qoʻllashga yordam beradi.

Tadqiqot obyekti sifatida N. Mahmudovning “Soʻz sandiqchasi” asari tahlil qilinganda, unda berilgan leksik birliklarning izohi sodda va tushunarli tarzda bayon qilinganligi kuzatildi. Jumladan, lugʻatda mehmon soʻziga quyidagicha izoh beriladi: “mehmon – birovnikiga toʻy, ziyofat, umuman mehmondorchilikka borgan odam”. Mazkur izoh orqali bolalarda “mehmon” soʻzining semantik mazmuni va konseptual tasavvuri shakllanadi. Natijada oʻquvchilar ushbu soʻzning maʼnosini oson anglaydi hamda u bilan bogʻliq leksik birliklarni ham aniq va loʻnda tarzda oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Uchinchidan, bolalar lugʻatlarida vizual elementlarning qoʻllanilishi muhim lingvodidaktik omil hisoblanadi. Rasmlar, diagrammalar va boshqa vizual vositalar soʻz maʼnosini tushunishni osonlashtiradi hamda bolalarning qiziqishini oshiradi.

Boshlangʻich taʼlim bosqichida ona tili va oʻqish savodxonligi fanlarini oʻqitish jarayonida turli xorijiy tillardan oʻzlashgan leksik birliklar bilan ham uchrashish mumkin. Bunday soʻzlarning semantik mazmuni koʻpincha oʻquvchilar uchun darhol anglashilavermaydi, chunki ular bolalarning kundalik nutq tajribasida kam qoʻllanadi. Natijada oʻquvchilar mazkur soʻzlarning maʼnosini idrok etishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shu sababli bunday leksik birliklarni oʻrgatishda lingvodidaktik yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi. Xususan, soʻz maʼnosini tushuntirish jarayonida turli

ko‘rgazmali vositalar, jumladan, tarqatma materiallar, kartochkalar va vizual tasvirlardan foydalanish o‘quvchilarning tasavvurini faollashtiradi hamda so‘zning semantik mazmunini aniqroq anglashiga yordam beradi. Vizual materiallar orqali berilgan izohlar bolaning obrazli tafakkuriga mos kelib, yangi so‘zning mazmunini uning ongida mustahkam shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 3-qismida (U.B. Aydarova, N.K. Azizova) berilgan “Tabiat zanjiri” nomli rivoyatda majol (arab. majāl – kuch, imkoniyat) so‘zi qo‘llanilgan [6:82]. Mazkur leksik birlik o‘zlashma so‘z bo‘lganligi sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun uning semantik mazmuni darhol anglashilmasligi mumkin. Natijada o‘quvchilarda ushbu so‘zga nisbatan ma‘lum darajada mavhum tasavvur shakllanishi kuzatiladi.

Bunday vaziyatlarda so‘z ma‘nosini tushuntirish jarayonida lingvodidaktik yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi. Xususan, o‘quvchilarga mazkur so‘zning ma‘nosini anglatishda antonim munosabatdagi so‘zlar aks etgan rangli va rasmlı kartochkalardan foydalanish samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bunday ko‘rgazmali vositalar orqali so‘zning semantik mazmuni obrazli tarzda yoritilib, o‘quvchilarning tasavvurida yangi leksik birlikning ma‘nosi aniqroq shakllanadi hamda ularning lug‘at boyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, bolalar lug‘atlarida kontekstual misollardan foydalanish muhim lingvodidaktik ahamiyatga ega. So‘zlarning gap tarkibida qo‘llanilishi o‘quvchilarga ularning semantik mazmunini aniqroq anglash hamda nutq jarayonida to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi. Kontekst orqali berilgan misollar so‘zning funksional xususiyatlarini ochib berib, o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi.

Masalan, 2-sinf “Ona tili” darsligining 2-qismida berilgan “Qomusim” she‘rida “charog‘on” so‘zi qo‘llanilgan [26:90]. Mazkur leksik birlik bolalar nutqida nisbatan kam qo‘llanadigan so‘zlardan biri bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun uning semantik mazmunini anglash ma‘lum darajada qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. “Charog‘on” so‘zi odatda yorug‘, chiroqlar bilan bezatilgan, nurga to‘lgan holatni ifodalash ma‘nosida ishlatiladi.

Bunday leksik birliklarni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida kontekstual misollardan foydalanish samarali lingvodidaktik usullardan biri hisoblanadi. Xususan, o‘qituvchi ushbu so‘zning ma‘nosini ochib beruvchi sodda gaplar tuzish orqali o‘quvchilarning tasavvurini faollashtirishi mumkin. Masalan: “Bayram kuni maktab hovlisi chiroqlar bilan charog‘on bo‘ldi” kabi misollar orqali so‘zning mazmuni aniqroq anglashiladi. Bunday yondashuv nafaqat so‘zning semantik mohiyatini ochib beradi, balki ushbu leksik birlikni o‘quvchilarning faol lug‘at tarkibiga kiritishga ham xizmat qiladi.

Bolalar leksikografiyasi tilni o‘rganish jarayonida muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Lug‘atlar orqali bolalar yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, ularning ma‘nosini tushunadi va nutq jarayonida qo‘llashni o‘rganadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar leksikografiyasi leksikografiya nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u boshlang'ich ta'lim bosqichida til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlar umumiy lug'atlardan o'zining maqsadi, tuzilishi va metodik yo'naltirilganligi bilan farqlanadi. Ularni tuzishda bolalarning yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish darajasi hamda nutqiy ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida bolalar leksikografiyasining bir qator lingvodidaktik xususiyatlari aniqlangan bo'lib, ular orasida leksik birliklarni tanlash, so'zlarga sodda va tushunarli izoh berish, vizual vositalardan foydalanish hamda kontekstual misollar orqali so'z ma'nosini ochib berish alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. N. Mahmudovning “So'z sandiqchasi” asari tahlili ham bolalar lug'atlarida so'zlarning izohi sodda, aniq va bolalar tafakkuriga mos tarzda berilishi o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natija berishini ko'rsatdi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf darsliklarida uchraydigan ayrim o'zlashma yoki bolalar nutqida kam qo'llanadigan so'zlarni o'rgatishda ko'rgazmali vositalar, kartochkalar va kontekstual misollardan foydalanish muhim lingvodidaktik usul sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning so'z ma'nosini chuqurroq anglashiga hamda yangi leksik birliklarni faol nutq jarayonida qo'llashiga yordam beradi.

Umuman olganda, bolalar leksikografiyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va tilni ongli ravishda o'zlashtirish jarayonini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois kelgusida bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlarni yaratishda lingvodidaktik tamoyillarga asoslangan yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova, M. (1995). Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Tashkent: O'qituvchi.
2. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). The Oxford guide to practical lexicography. Oxford: Oxford University Press.
3. Aydarova, U. B., & Azizova, N. K. (2023). O'qish savodxonligi: 3-sinf, 3-qism. Tashkent: Respublika ta'lim markazi.
4. Béjoint, H. (2010). The lexicography of English: From origins to the present. Oxford: Oxford University Press.
5. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA: MIT Press.

6. Hartmann, R. R. K., & James, G. (1998). Dictionary of lexicography. London: Routledge.
7. Jackson, H. (2002). Lexicography: An introduction. London: Routledge.
8. Kuranov, S. (2023). Ona tili: 2-sinf uchun darslik, 2-qism. Tashkent: Respublika ta'lim markazi.
9. Landau, S. (2001). Dictionaries: The art and craft of lexicography. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Mahmudov, N. (2019). So'z sandiqchasi. Tashkent: Ma'naviyat.
11. Piaget, J. (1994). The language and thought of the child. London: Routledge.
12. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
13. Toirova, G. (2020). O'zbek bolalar nutqining ontogenezi va psixolingvistik xususiyatlari. Tashkent.
14. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and language. Cambridge, MA: MIT Press.